

## «TASDIQLANGAN»

## **“Smart bank” aksiyadorlik jamiyatiga Yagona aksiyadori qarori bilan**

“Leader Finance” MCHJ  
Bosh direktor v.b.

2024 yil «15» oktoabr

J. Xaydarov



## «RO'YXATDAN O'TKAZILGAN»

## O'zbekiston Respublikasi Istiqlolli loyihalar milliy agentligi

## Direktorning birinchi o'rningbosari

V.Pak

2024 yil «31» ORTSOP1 P0167-4-son

M.O.

## **“SMART BANK” AKSIYADORLIK JAMIyatining Qo’shimcha Aksiyalar chiqarilishi to‘g’risidagi qarori**

**Identifikatsiya raqami  
berildi:**

R U 104 P 0967 R 3

Nominal qiymati 1 000 soʻm boʻlgan 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalar.

Mazkur chiqarilishdagi aksiyalar yopiq obuna usulida joylashtiriladi.

Aksiyalarning ushbu chiqarilishi to‘rtinchi chiqarilishdir.

“Smart bank” aksiyadorlik jamiyatı Yagona aksiyadorning 2024 yil «15» oktoabr 10/1-sonli qarori bilan aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror tasdiqlangan.

“Smart bank” aksiyadorlik jamiyatiga Yagona aksiyadorning 2024 yil «15» oktoabr 10/1-sonli qarori bilan aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili, muloqot telefonlari va elektron pochta manzili: 100011, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 2A-uy, tel.: +998 97 773-70-20, elektron pochta manzili: office@smartbank.uz

### Emitentning rahbari:

A.SH. To'rayev

### Bosh buxgalter:

O.T. Utamurotov

2024 yil «15» oktoabr



- 1. Ushbu chiqarilishdagi egasining nomi yozilgan aksiyalar turi (oddiy yoki imtiyozli):** oddiy.
- 2. Ushbu aksiyalar chiqarilishining shakli:** hujjatsiz.
- 3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati (so‘m):** 1 000 (bir ming) so‘m.
- 4. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning soni (dona):** 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona.
- 5. Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so‘m):** 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) so‘m.

#### **6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar egalarining huquqlari:**

Jamiyat aksiyadori quyidagi huquqlarga ega:

- jamiyat aksiyadorlarining reyestriga kiritilish;
- depo hisobvarag‘idan o‘ziga taalluqli ko‘chirma olish;
- jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- jamiyat tugatilgan taqdirda o‘ziga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish bundan qonunchilikka asosan jamiyat sirini tashkil qiluvchi ma’lumotlar mustasno;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;
- o‘ziga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foya ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish.

Aksiyador qonun hujjatlariga va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

- 7. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olinishiga nisbatan jamiyat ustavidagi va/yoki chiqarilish to‘g‘risidagi qarordagi har qanday cheklashlar:** Bank ustavida ushu chiqarilishdagi aksiyalarni olishga cheklashlar mavjud emas. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar chiqarilish to‘g‘risidagi qarorga asosan “Smart bank” AJ Yagona aksiyadori “Leader Finance” MCHJga joylashtiriladi.

- 8. Jamiyat ustav kapitalining miqdori (so‘m):** 350 000 000 000 (Uch yuz ellik milliard) so‘m.

- 9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo‘yicha taqsimlangan holda ko‘rsatiladi):** 350 000 000 (Uch yuz ellik million) dona oddiy aksiyalar.

- 10. Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar soni (turlari va ko‘rinishlari bo‘yicha taqsimlangan holda ko‘rsatiladi):** Jamiyat tomonidan ilgari obligatsiyalar joylashtirilmagan.

- 11. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining shartlari va tartibi.**

- 11.1. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna):** Ushbu chiqarilishdagi barcha aksiyalar “Smart bank” AJ Yagona aksiyadori - “Leader Finance” MCHJga yopiq obuna usulida joylashtiriladi.

- 11.2. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati:** Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 2024 yil 6 dekabrga qadar muddat ichida joylashtiriladi.

*Joylashtirishni boshlanish sanasi:* mazkur aksiyalarning chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kun.

*Joylashtirishni tugash sanasi:* ushu chiqarilishning oxirgi aksiya joylashtirilgan kuni hisoblanib, ushu sana aksiyalarni joylashtirishni boshlanish sanasidan boshlab 2024 yil 6 dekabr kunidan oshmasligi lozim.

**11.3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi:** Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining tegishli savdo maydonchalarida bitim tuzish orqali qonunchilikda va savdo qoidalarida o'rnatilgan tartibda bank yagona aksiyadori "Leader Finance" MCHJga joylashtiriladi.

Bunda anderryterlarni jalg qilish ko'zda tutilmagan.

**11.4. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o'z ichiga olgan to'liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni:**

Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi Davlat korxonasi.

Joylashgan joyi (pochta manzili): 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi, 107. Tel.: 71 267-37-42.

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarga bo'lgan huquqni hisobga olish investitsiya vositachisi "Leader Finance Capital" mas'uliyati cheklangan jamiyatni tomonidan amalga oshiriladi.

Joylashgan joyi (Pochta manzili): 100115, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor-3 mavzesi, 74-uy. Tel.: 99 444-53-53.

**11.5. Ushbu chiqarilishdagi joylashtirayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi:** Mazkur chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishda imtiyozli huquq ko'zda tutilmagan.

**11.6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi:** Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar 1 000 so'mdan joylashtiriladi.

**11.7. Aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi:** Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarga to'lov "Smart bank" AJning bank hisob raqamiga milliy valyutada naqdsiz shakldagi pul mablag'lari o'tkazish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Bank rekvizitlari: "Smart bank" AJ hisob raqami: 29830007000001199001, MFO: 01199, STIR: 310123822.

**11.8. Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi:** Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalari qonunchilikda belgilangan tartibda 10 kun ichida qaytariladi.

**12. Emitent tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi (qo'shimcha chiqarilishi) to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari muvofiq oshkor qilish tartibi:** Aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi axborot ushbu chiqarilish davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan so'ng qonun hujjalarda belgilangan tartibda Korporativ axborotning yagona portalida ([openinfo.uz](http://openinfo.uz)) va jamiyat rasmiy veb-saytida ([www.smartbank.uz](http://www.smartbank.uz)) e'lon qilinadi. Aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror asli bilan Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 2A-uy manzilda tanishish mumkin.

**13. Boshqa ma'lumotlar:** Ko'zda tutilmagan.